



Muminova Gulnora Taxirovna

Katta muharrir, dizayn

Fayziyev Abdujabbor

Texnik muharrir

Original-maket O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to'liq yoki qisman ko'chirilib bosilganida «O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining «Kriminologik faoliyat» ilmiy-amaliy jurnali»dan olinganligi ko'rsatilishi shart.

Materiallarda keltirilgan fakt va raqamlar, ko'chirmalar, iqtisodiy statistik ma'lumotlar rostligi va aniqligi uchun muallif javob beradi.

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma taqriz qilinmaydi va qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi.

Bichimi 60x40 1/8.

Bosma tabag'i 11,0.

Adadi 50 nusxa.

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida chop etilgan.

Bosishga ruxsat etildi 30.06.2026.

Buyurtma № 26/39.

MUNDARIJA

Saidov B.Yo.

Kiberjinoyatlar bo'yicha xalqaro standartlar va xorijiy davlatlar tajribasida kiberog'rilik jinoyatlari kvalifikatsiyasi 86

Maxsadorov M.I.

Koreya Respublikasi va O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-huquqbuzarliklar to'g'risidagi qonunchiligini qiyosiy-huquqiy tahlili: milliy ma'muriy qonunchilikni modernizatsiya qilish yo'llari 91

Aripov A.X.

O'zbekistonda yoshlar huquqbuzarliklari profilaktikasi: milliy qonunchilik tahlili, statistik tendensiyalar va ilg'or xorijiy tajriba 99

XALQARO HAMKORLIK

Kaxarova M., R. Kalesnikas

Female criminality: socio-psychological deformation and victimological determinants 104

Gábor Kovács, Alokxonov M.A.

Issues of improving the quality of national criminological research on the basis of modern scientific standards 110

Тазетдинов Р.Р., Агафонов М.В.

Международно-правовые и национальные подходы к противодействию киберпреступности 122

TADQIQOTCHI MINBARI

Turayev A.P.

Jinoyatlarning sabab va sharoitlarini aniqlashda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning kriminologik asoslari 127

Kutbitdinov G'.X.

O'zbekiston respublikasida prekursorlarustidan davlat nazorati: muammolar va yechimlar 124

Murzajanov Sh.G.

Murojaatlar bilan ishlash orqali huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish: huquqiy mexanizmlar va samaradorlik 134

Davranov X.B.

Korrupsiyaviy jinoyat sodir etgan ichki ishlar organlari xodimi shaxsining kriminologik tavsifi 143

Rixsimov K.A.

O'zbekistonda raqamli kriminologiyani rivojlantirish: "Criminology AI" texnologiyasi misolida milliy model 148

Isayev E.E.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasining institutsional-huquqiy mexanizmini takomillashtirish strategiyalari 152

Maxmudov J.X.

Jamoat tartibini muhofaza qilishda milliy gvardiya kabi tuzilmalarning o'ziga xos jihatlari: xorijiy tajriba 160

Muhamadov U.U.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatida maxsus xizmat vazifalarini bajarish layoqatini huquqiy ta'minlash: xorijiy strategiyalar va innovatsion yondashuvlar 166

Aynidinov S.I.

Narkojinoyatlarga qarshi kurashda xorijiy davlatlar tajribasi 173

IJTIMOY PROFILAKTIKA SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING KRIMINOLOGIK MEZONLARI



**BERDIALIYEV
Baxtiyor Erkinovich**

O'zbekiston Respublikasi

Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada jinoyatchilikning oldini olish tizimida ijtimoiy profilaktika samaradorligini kriminologik baholashning nazariy-huquqiy va metodologik muammolari tahlil qilingan. Muallif tomonidan an'anaviy statistik baholash tizimining kamchiliklari ochib berilib, kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish va kriminologik xavfsizlikni ta'minlash darajasini aniqlashning yangi ilmiy mezonlari (kriteriyalari) taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy profilaktika, kriminogen vaziyat, samaradorlik mezonlari, kriminologik xavfsizlik, determinatsiya, viktimologik indikatorlar, deviant xulq-atvor.

Аннотация. В статье анализируются теоретико-правовые и методологические проблемы криминологической оценки эффективности социальной профилактики в системе предупреждения преступности. Автор раскрывает недостатки традиционной статистической системы оценки и предлагает новые научные критерии для определения уровня стабилизации криминогенной ситуации и обеспечения криминологической безопасности.

Ключевые слова: социальная профилактика, криминогенная ситуация, критерии эффективности, криминологическая безопасность, детерминация, виктимологические индикаторы, девиантное поведение.

Abstract. The article analyzes the theoretical, legal, and methodological problems of criminological evaluation of social prevention effectiveness within the crime prevention system. The author exposes the shortcomings of the traditional statistical evaluation system and proposes novel scientific criteria for determining the level of stabilization of the criminogenic situation and ensuring criminological security.

Keywords: social prevention, criminogenic situation, effectiveness criteria, criminological security, determination, victimological indicators, deviant behavior.

Zamonaviy kriminologiya ilmi oldida turgan eng murakkab fundamental muammolardan biri – jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning real natijadorligini xolis, tizimli va ilmiy asoslangan tarzda baholash metodologiyasini yaratish hisoblanadi. Uzoq yillar davomida ijtimoiy profilaktika subyektlari faoliyati sof miqdoriy va idoraviy ko'rsatkichlar, ya'ni qayd etilgan jinoyatlar sonining mexanik tarzda kamayishi yoki ko'payishi hamda o'tkazilgan targ'ibot tadbirlarining soni asosida baholab kelindi. Biroq, jinoyatchilikning yashirinlik darajasi yuqori bo'lgan, globallashtirish

shiddatli tus olgan zamonaviy sharoitda, bunday sof statistik va an'anaviy yondashuv kriminogen voqelikning real manzarasini aks ettira olmaydi. Mazkur muammo nafaqat milliy kriminologiya doktrinasida, balki Birlashgan Millatlar Tashkilotining jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olishga qaratilgan global strategik hujjatlarida ham o'z aksini topgan. Xususan, BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va jinoyat odil sudlov bo'yicha X Kongressida qabul qilingan Vena deklaratsiyasi [1] hamda XII Kongress tomonidan e'lon qilingan Salvador deklaratsiyasi [2] kabi xalqaro standartlarda preventiv faoliyat samaradorligini baholashda sof

idoraviy raqamlardan voz kechish lozimligi uqtiriladi. Ushbu xalqaro hujjatlar davlatlar zimmasiga jinoyatchilikning oldini olish siyosatini shakllantirishda jamiyatning real viktimizatsiya darajasini, aholining kriminologik xavfsizlik hissini hamda jinoiy xulq-atvorni shakllantiruvchi chuqur ijtimoiy determinantlarni tizimli o'rganish va baholash majburiyatini yuklaydi.

Bundan tashqari, BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (ECOSOC) tomonidan tasdiqlangan "Jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha rahbariy prinsiplar"da [3] ham ijtimoiy profilaktikaning natijadorligini faqatgina qayd etilgan jinoyatlar soni bilan emas, balki aholining ijtimoiy himoyalanganligi va preventiv choralarning manzilliligi bilan baholash zarurligi konseptual jihatdan mustahkamlangan. Ushbu prinsiplarning mantiqiy davomi va milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilinishi o'laroq, O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni [4] huquqni qo'llash amaliyoti oldiga ijtimoiy profilaktikani sof ma'muriy ta'sir va repressiv choralar majmuidan tizimli ijtimoiy-huquqiy mexanizmga aylantirish vazifasini qo'ydi. Bu yo'nalishdagi konseptual buriish va davlat preventiv siyosatining strategik ustuvorliklari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni [5] hamda ushbu Farmon bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi"da [6] o'z aksini topdi.

Mazkur oliy darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar jinoyatchilikni jilovlashda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini an'anaviy "ijro intizomi va quruq hisobotbozlik" mezonlari asosida emas, balki aynan "hududlarning kriminogen vaziyati barqarorligini ta'minlash hamda aholining real kriminologik xavfsizligi darajasi" ko'rsatkichlari asosida baholashning mutlaqo yangi konseptual tizimiga o'tishni qonuniy mustahkamladi. Bu esa, o'z navbatida, milliy kriminologiya fani oldiga ijtimoiy profilaktika samaradorligini baholashning idoraviy manfaatlardan xoli bo'lgan ilmiy mezonlarini doktrinal darajada ishlab chiqish majburiyatini yuklaydi.

Institutsional darajada ijtimoiy profilaktika samaradorligini baholashning eng muhim mezon

sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentning "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [7] qarori va keyingi yillarda mahallabay ishlash tizimini rivojlantirishga doir qabul qilingan qonunchilik hujjatlariga muvofiq, idoralararo integratsiyalashuv darajasini olish mumkin. Bunda baholash mezonlari sifatida qaysidir idoraning alohida hisoboti emas, balki mahalla, oila, ta'lim muassasalari, bandlik va sog'liqni saqlash organlarining "xavf guruhi"ga mansub shaxslar bilan olib borayotgan ijtimoiy-reabilitatsion ishlarining kompleks mazmuni va ushbu shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldi olinganligi asosiy ko'rsatkich bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, ijtimoiy profilaktikaning ta'sirchanligini baholashda ijtimoiy-deviantologik va viktimologik indikatorlarni ishlab chiqish taqozo etiladi. Davlatimiz rahbari tomonidan sohani raqamlashtirish va "xavfsiz mahalla" tamoyilini joriy etish bo'yicha berilgan topshiriqlar, shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyatiga oid normativ hujjatlar zamirida sof statistik pasayish ortidan quvish emas, balki aholi orasida ichkilikbozlik, kiberjinoyatchilik, giyohvandlik, oilaviy-maishiy nizolar darajasining qay darajada pasayganligini hamda fuqarolarning o'z yashash hududidagi kriminologik xavfsizlik muhitidan qoniqish darajasini anonim ijtimoiy so'rovlar orqali aniqlash mezonlari turibdi. Zotan, jinoyat sodir etilishi uchun sharoit yaratuvchi ijtimoiy-iqtisodiy determinantlarni bartaraf etmay turib, sof ma'muriy tadbirlar bilan kriminogen vaziyatni barqarorlashtirib bo'lmazligi bugungi kunda ilmiy isbotini topgan haqiqatdir.

Mazkur tadqiqot jarayonida ijtimoiy profilaktika va kriminogen vaziyat o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni ilmiy asoslash maqsadida tizimlilik, qiyosiy-huquqiy, kriminologik prognozlash, deviantologik forsait va fenomenologik yondashuv metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi. Profilaktik faoliyat samaradorligini nazariy va amaliy baholash muammolari uzoq yillardan buyon kriminologiya fanlar doktrinasining diqqat markazida bo'lib, ushbu yo'nalishda xorijlik va milliy olimlar tomonidan turlicha, ko'pincha bir-birini inkor etuvchi yoki to'ldiruvchi konseptual qarashlar ilgari surilgan.

Xususan, taniqli xorijlik kriminolog olim G.A. Avanesov profilaktika samaradorligini baholashda

ko'proq tizimli-funksional yondashuvga urg'u berib, prevensiyaning natijadorligini davlat idoralari va jamoatchilik tuzilmalari o'rtasidagi ijtimoiy nazorat zanjirining nechog'li to'g'ri tashkil etilganligi bilan o'lchashni taklif etadi [8]. Undan farqli o'laroq, professor Yu.M. Antonyan o'zining fundamental tadqiqotlarida sof tashkiliy choralardan ko'ra, jinoiy xulq-atvorning psixologik va viktimologik jihatlarini ustuvor deb biladi. Yu.M. Antonyanning konsepsiyasiga ko'ra, ijtimoiy profilaktikaning haqiqiy bahosi muayyan hududdagi shaxslarning destruktiv va deviant xulq-atvor darajasining pasayishi hamda aholining ong ostidagi jinoyat qurboni bo'lish qo'rquvini neytrallashtirish bilan belgilanishi lozim [9]. Jinoyatchilik determinatsiyasi nazariyasining asoschilaridan biri V.N. Kudryavsev esa ushbu masalaga sof gnoseologik yondashib, profilaktika samaradorligini baholashni bevosita jinoyatchilikning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari va shart-sharoitlari koeffitsiyentining o'zgarishiga bog'laydi hamda determinantlar zanjiri uzilmaguncha ma'muriy tadbirlar kutilgan preventiv natija bermasligini ilmiy isbotlaydi [10].

Mazkur nazariy qarashlar transformatsiyasi milliy kriminologiya maktabi vakillarining asarlarida mahalliy ijtimoiy-siyosiy sharoit va milliy mentalitet kontekstida yanada rivojlantirildi. Professor M.X. Rustambayev profilaktika samaradorligining huquqiy kafolatlari va institutsional tizimini takomillashtirish masalasiga e'tibor qaratib, baholash mezonlarini to'g'ridan-to'g'ri normativ-huquqiy hujjatlarning ijro etilish sifati va jinoyat qonunchiligidan umumiy hamda maxsus prevensiya funksiyalarining real hayotdagi ta'sirchanligi orqali baholashni ilgari suradi [11]. Ushbu doktrinaga nisbatan biroz boshqacharoq, ya'ni sof tizimli-amaliy yondashuvni ishlab chiqqan olim I. Ismailov profilaktika subyektlari faoliyatini baholashning ichki idoraviy tizimini tanqid qiladi. I. Ismailov o'z izlanishlarida ijtimoiy prevensiya samaradorligini o'lchashda sof statistik kamayish paradoksidan voz kechib, idoralararo hamkorlikning sifati va aholining huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo'lgan real ishonch darajasini bosh mezon sifatida olishni asoslab bergan [12].

Shu bilan bir qatorda, milliy kriminologiyada viktimologik va deviantologik yo'nalishlarning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan olim Q.R.

Abdurasulova profilaktik samaradorlikni shaxs deviantligining shakllanish omillari bilan bog'laydi va baholash indikatorlari tizimiga jamiyatdagi axloqiy-huquqiy muhit indikatorlarini olib kirishni taklif etadi [13]. O'z navbatida, G.A. Axmedov profilaktika muammolarini bevosita mikroijtimoiy muhit va mahalla institutining salohiyati orqali tahlil qilib, prevensiyaning natijadorligini mahalliy darajadagi ijtimoiy nizolar va oilaviy-maishiy muhitdagi kelishmovchiliklarning barvaqt hal etilish koeffitsiyenti bilan o'lchash lozimligini ta'kidlaydi [14].

Olimlarning yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlari va konseptual yondashuvlari ijtimoiy profilaktikaning nazariy poydevorini yaratishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning aksariyati an'anaviy jinoyatchilik modellari ustuvor bo'lgan davrda shakllantirilgan. Bugungi kunda esa ijtimoiy profilaktikaning transformatsiyalashib borayotgan kriminogen vaziyatga, ayniqsa, raqamli makonga ko'chgan kriminal tahdidlar: kiberjinoyatchilik, fishing, kripto-aktivlar bilan bog'liq firibgarliklar va globallashuv ta'sirida yuzaga kelayotgan yangi deviant xulq-atvor shakllari: raqamli marginalashuv, virtual destruktiv submadaniyatlar rivojlangan sharoitdagi ta'sirini baholovchi kompleks kriminologik mezonlar tizimi nazariy jihatdan ham, amaliy-huquqiy jihatdan ham hali to'laqonli shakllantirilmagan. Bu esa raqamli kriminogen voqelikning o'ziga xos xususiyatlarini, uning yashirinlik darajasi nihoyatda yuqoriligini va an'anaviy hududiy chegaralarga ega emasligini inobatga olgan holda, ijtimoiy profilaktika samaradorligini baholashning mutlaqo yangi, sof kriminologik va prognostik mezonlarini doktrinal darajada ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Ijtimoiy profilaktika samaradorligi – bu tizimli chora-tadbirlar natijasida kriminogen omillarning neytrallashtirilishi, aholining huquqiy himoyalanganlik darajasining oshishi va jamiyatda barqaror kriminologik xavfsizlik muhitining qaror topishi.

Bugungi kunda ushbu tizimni baholashda quyidagi ikkita doktrinal ziddiyat mavjud:

"*Statistik paradoks*": Ma'lum bir hududda qayd etilgan jinoyatlar sonining kamayishi profilaktikaning kuchayganini emas, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatlarni yashirishga bo'lgan intilishini yoki aholining ushbu organlarga bo'lgan ishonchi pasayganligini ko'rsatishi mumkin.

Ijtimoiy determinantlarning unutilishi. Jinoyatchilikning o'sishi yoki kamayishiga faqatgina profilaktika organlari emas, balki makroiqtisodiy omillar, ishsizlik darajasi, migratsiya va aholining ijtimoiy tabaqalanishi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, baholash tizimiga faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy-kriminologik indikatlarni ham kiritish shart.

Ijtimoiy profilaktikaning transformatsiyalashib borayotgan zamonaviy jinoyatchilik sharoitidagi real natijadorligini o'lchash uchun an'anaviy va sof idoraviy statistik yondashuvlardan voz kechib, tizimli kriminologik baholash modellarini amaliyotga tatbiq etish lozim.

Birinchidan, institutsional-funksional mezonlar, ya'ni protsessual baholash tizimi orqali preventiv faoliyatning tashkiliy-huquqiy tuzilmasi va subyektlarning funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bunda eng asosiy ko'rsatkich sifatida profilaktika subyektlari, xususan, mahalla instituti, ta'lim muassasalari, bandlik va sog'liqni saqlash organlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar o'rtasidagi idoralararo vertikal va gorizontol integratsiyalashuvning sifati olinadi. Ushbu mezon doirasida quruq rasmiy hisobotlar va o'tkazilgan tadbirlar soni emas, balki "xavf guruhi"ga mansub shaxslar, ya'ni muqaddam sudlanganlar, probatsiya nazoratidagilar hamda deviant xulq-atvorli voyaga yetmaganlar bilan olib boriladigan individual-profilaktik ishlarning manzilliligi, ularning ijtimoiylashuvi va reabilitatsiyasi darajasi baholanadi. Mazkur protsessual yondashuvning yakuniy kriminologik natijasi muayyan hududda retsidiv jinoyatchilikning real jilovlanishi va shaxsning kriminal muhitdan butunlay uzilishi koeffitsiyenti bilan o'lchanishi lozim.

Ikkinchidan, sotsial-viktimologik mezonlar, ya'ni obyektiv-subyektiv baholash tizimi profilaktik choralarning jamiyat hayotidagi real aks-sadosini va ijtimoiy muhitning barqarorligini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu bosqichda aholining kriminologik xavfsizlik hissi, ya'ni muayyan hududda yashovchi fuqarolarning kunduzi va tungi vaqtda ko'chalarda, jamoat joylarida o'zlarini, oila a'zolarini hamda o'z mulklarini qanchalik xavfsiz his qilishlari bosh mezon sifatida olinadi. Mazkur ko'rsatkich idoraviy statistik raqamlardan mustaqil ravishda, sof anonim ijtimoiy-kriminologik so'rov-

nomalar orqali aniqlanib, davlatning preventiv siyosatiga jamiyat tomonidan berilgan xolis baho hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, ushbu mezon doirasida jamiyatning real viktimalizatsiya darajasi, ya'ni aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, xotin-qizlar va yoshlarning ijtimoiy destruktiv omillar oqibatida jinoyat qurboniga aylanishga bo'lgan moyilligining qay darajada pasayganligi kompleks tahlil etiladi.

Uchinchidan, prognostik-modellashtirish mezonlari, ya'ni strategik baholash tizimi ijtimoiy profilaktikaning istiqboldagi tahdidlarni bartaraf etish borasidagi intellektual va texnologik salohiyatini belgilab beradi. Bunda profilaktika tizimining kriminogen vaziyat rivojlanishini va jinoyatchilik transformatsiyasini oldindan to'g'ri prognoz qila olish, mavjud kuch va vositalarni jinoiy xavf yuqori bo'lgan nuqtalarga, ya'ni "kriminogen o'choqlarga" oldindan mutanosib ravishda safarbar eta olish qobiliyati baholanadi. Strategik darajada ushbu mezon muayyan hududda mavjud bo'lgan sof ijtimoiy muammolarning, xususan, ishsizlik, oilaviy ajrimlar, ichki va tashqi migratsiya jarayonlari hamda ijtimoiy tabaqalanishning real jinoyatchilik dinamikasiga o'tish koeffitsiyentining pasayishini nazorat qilishni anglatadi. Oqibatda, davlatning ijtimoiy asoslari: bandlik dasturlari, ijtimoiy yordam, madaniy-ma'rifiy loyihalar orqali kriminogen determinantlarning zanjiri barvaqt uzilib, jinoyat sodir etilishiga zamin yaratuvchi sabab va shart-sharoitlarni tizimli ravishda yo'qotishga erishiladi.

Ijtimoiy profilaktika samaradorligini baholashning kriminologik mezonlarini nazariy va qonunchilik darajasida takomillashtirish – davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatini an'anaviy jazolashdan barvaqt oldini olish va determinantlarni neytrallashtirishga o'tkazishning bosh strategik sharti hisoblanadi. Olib borilgan kompleks tadqiqot natijasi o'laroq, milliy kriminologiya doktrinasini boyitish va huquqni qo'llash amaliyotini tubdan modernizatsiya qilishga qaratilgan bir qator fundamental takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, jamiyatda jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy determinantlarga qarshi kurashishning tarqoq huquqiy bazasini tizimlashtirish maqsadida mutlaqo yangi va yaxlit O'zbekiston Respublikasining "Jinoyatchilikning ijtimoiy profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni loyihasini ishlab

chiqish va qabul qilish lozim. Amaldagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun ko'proq huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ma'muriy-huquqiy ta'sir choralariga asoslangani sababli, yangi taklif etilayotgan qonun hujjatida ijtimoiy prevensiyaning sof kriminologik choralari, ya'ni kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, deviant xulq-atvor va marginal qatlamlarning kriminalizatsiyalashuviga qarshi kurashishda "mahalla yetiligi" a'zolari hamda nohuquqiy, ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy, psixologik subyektlarning majburiyatlari va javobgarlik chegaralari aniq mustahkamlanish shart.

Ikkinchidan, ushbu yangi konseptual qonunchilik doirasidagi idoraviy statistik baholash tizimidan butunlay voz kechgan holda, "Hududlarning kriminologik xavfsizlik milliy indeksi" doktrinal tushunchasini normativ darajada joriy etish va uni preventiv faoliyat natijadorligini o'lchovchi bosh mezon sifatida mustahkamlash taqozo etiladi. Mazkur indeks shunchaki ro'yxatga olingan jinoyatlar sonini emas, balki ijtimoiy profilaktikani ishlaganligi, muayyan ma'muriy-hududiy birlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, aholining turmush darajasi, oilaviy-maishiy nizolar dinamikasi va jamiyatning huquqiy himoyalan-

ganlik holatini kompleks aks ettiruvchi integrallashgan ilmiy ko'rsatkich bo'lib xizmat qilishi kerak.

Uchinchidan, preventiv tizim ta'sirchanligini baholashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'z faoliyatiga o'zlari baho beradigan sof ichki idoraviy hisobotlari ustuvorligiga chek qo'yish kerak. Buning o'rniga, davlat idoralari va jamoatchilik tuzilmalarining real mehnat mahsulini xolis baholash uchun mustaqil ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan muntazam ravishda o'tkaziladigan anonim sotsiologik va viktimologik so'rovlar natijalariga qonuniy ustuvorlik berish tizimini yaratish lozim. Faqatgina fuqarolarning o'z yashash muhitidagi kriminologik xavfsizlik darajasidan subyektiv qoniqish ko'rsatkichi hamda jamiyatning real viktimizatsiya darajasi ijtimoiy profilaktika samaradorligini o'lchovchi eng xolis nazorat va baholash mexanizmi bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan mazkur doktrinal modellarning amaliyotga tatbiq etilishi, O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash va kriminogen vaziyat barqarorligini ilmiy asoslangan indikatorlar (KPI) vositasida boshqarishning mutlaqo yangi va zamonaviy bosqichini boshlab beradi.

Foydalanilgan manbalar

1. Vienna Declaration on Crime and Justice: Meeting the Challenges of the Twenty-first Century. General Assembly resolution 55/59. URL: <https://www.unodc.org>.
2. Salvador Declaration on Comprehensive Strategies for Global Challenges: Crime Prevention and Criminal Justice Systems and Their Development in a Changing World. General Assembly resolution 65/230. URL: <https://www.unodc.org>.
3. Guidelines for the Prevention of Crime. ECOSOC Resolution 2002/13. URL: <https://www.unodc.org>.
4. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" 2014.14.05dagi O'RQ-371-son qonuni. URL: <https://lex.uz>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021.29.11dagi PF-27-son farmoni. URL: <https://lex.uz>.
6. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son farmoniga 1-ilova). URL: <https://lex.uz>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017.14.03dagi PQ-2833-son qarori. <https://lex.uz>.
8. Аванесов Г.И. Теория превенции преступности и социальный контроль // Вестник Академии МВД. – М., 2015. – №2. – С. 45–52.
9. Антонян Ю. Личность преступника и превентивная психология: Криминологический анализ. – М.: Норма, 2019. – С. 112–118.
10. Кудрявцев В.Н. Борьба мотивов в преступном поведении и превентивное воздействие. – М.: Юрид. лит., 2009. – С. 84.
11. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining jinoyat siyosati va huquqbuzarliklar profilaktikasining doktrinal asoslari: Darslik. – T.: IIV Akademiyasi, 2020. – B. 142–150.
12. Ismailov I. Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimi samaradorligini kriminologik baholash metodologiyasi // Huquq va burch. – T., 2017. – №6. – B. 14–21.
13. Abdurasulova Q.R. Deviant xulq-atvor kriminologiyasi va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi prevensiyasi muammolari. – T.: TDYUU, 2016. – B. 98–105.
14. Axmedov G.A. Mahalla tizimida ijtimoiy profilaktikani tashkil etishning tashkiliy-huquqiy va kriminologik jihatlari: Monografiya. – T.: Yangi asr avlodi, 2022. – B. 76.